

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING BADIY ASARLARNI SHARXLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**Ismatova N.***Chirchiq davlat pedagogika universiteti**Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi**Ilmiy rahbar: Ibragimova D.**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. *Maqolada o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning badiiy asarlarni sharxlash ko‘nikmalarini shakllantirish mavzusi yoritilgan. Sharxlash ko‘nikmasining mazmuni, uning bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar. *Badiiy asar, sharhlash, interpretatsiya, Emilio Betti, talqin nazariyasi, Talqinning umumiy nazariyasi, yozma matn, san‘at asari, nutq, harakat, ramz, imo-ishora, birlamchi o‘qish, mantiqiy o‘qish, ijodiy o‘qish.*

Аннотация. *В статье освещена тема формирования у учащихся навыков интерпретации художественных произведений на занятиях по грамотности чтения. Обсуждается содержание навыков интерпретации и их значение в развитии мировоззрения ребенка.*

Ключевые слова. *Художественное произведение, интерпретация, Эмилио Бетти, теория интерпретации, Общая теория интерпретации, письменный текст, произведение искусства, речь, действие, символ, жест, первичное чтение, логическое чтение, творческое чтение.*

Annotation. *The article highlights the topic of developing students' skills in interpreting works of art during reading literacy classes. The content of interpretation skills and their significance in the development of a child's worldview are discussed.*

Keywords. *Work of art, interpretation, Emilio Betti, theory of interpretation, General theory of interpretation, written text, work of art, speech, action, symbol, gesture, primary reading, logical reading, creative reading.*

Hozirgi adabiy ta‘limni o‘qitishda maktab o‘sib kelayotgan yosh avlodni insoniyat tarixi davomida yaratilgan va shu vaqtgacha to‘ldirib kelingan milliy ma‘naviy madaniyatni egallashga undayabdi. Shu bilan birga, maktab o‘quvchilarini bolani real hayotga tayyorlash, ongli ravishda kasb tanlashiga erishish talabini qo‘ymoqda. Buning uchun o‘quvchilarning imkoniyatlarini va asosiy faoliyatlarini hisobga olgan holda o‘qitishning har bir bosqichida maqsadlarni belgilab olish lozim.

Boshlang‘ich ta‘lim maktablarining asosiy vazifasi- o‘quvchilarni atrofdagi kishilar bilan madaniyatli muomala qilishga o‘rgatish bilan birga dunyo standartlariga mos ravishda har tomonlama rivojlangan komil insonni tarbiyalashdir.

Sharhlash (Interpretatsiya) - nazariy-kognitiv kategoriya; talqin qilinadigan ob‘ektning tashqi ko‘rinishlarini (belgilar, imo-ishoralar, tovushlar va boshqalar) o‘rganish orqali uning ichki mazmunini tushunishga qaratilgan ilmiy bilish usuli hisoblanadi. Gumanitar fanlar metodologiyasida talqin markaziy o‘rinni egallaydi, bunda o‘rganilayotgan ob‘ektning ma‘nosi va ahamiyatini aniqlash tartibi tadqiqotchining asosiy strategiyasi hisoblanadi.

1955-yilda italiyalik huquqshunos, tarixchi va faylasuf **Emilio Betti** “Talqinning umumiy nazariyasi” kitobini e‘lon qildi. Bettining sharhlash nazariyasiga ko‘ra, talqin uchta tomon ishtirok etadigan jarayondir: muallifning subyektivligi, sharhlovchining subyektivligi va so‘z tanlash san‘ati. Betti nazariyasining markaziy konsepsiyasi - talqin qilish ob‘ektining “so‘z tanlash san‘ati” - inson subyektivligining barcha mumkin bo‘lgan mazmunli ifodalarini (yozma matn, san‘at asari, nutq, harakat, ramz, imo-ishora) qamrab olgan tushunchadir. So‘z tanlash san‘atining asosiy vazifasi undagi ma‘noni tarjima qilishdir.

SHARHLASH TURLARI		
Birlamchi o‘qish	Mantiqiy o‘qish	Ijodiy o‘qish
tajriba, kayfiyat, tuyg‘u shaklida umumiy taassurot va tushunish	tahlil bilan isbotlangan, faktik, mantiqiy va hissiy jihatdan tugallangan	adabiy va san‘at asarlarini boshqa san‘atlar tiliga "tarjima" qilish

Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha turli xalqaro va mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksar hollarda, ta‘lim tizimi jadal o‘zgarib borayotgan jamiyat talablariga javob berishga ulgurmayapti va o‘quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyati, jamoada ishlash hamda kundalik hayotda va ishlab chiqarishda foydalaniladigan yangidan-yangi texnologiyalarga moslashish kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantira olmayapti. Bilimlarni baholash usullarini isloh qilish ta‘lim sohasidagi har qanday tizimli o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

2020-yil 2-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev jahon miqyosida “O‘qish va uni tushunish sifati” bo‘yicha olib borilgan tadqiqot dasturini o‘rganish bo‘yicha ta‘lim muassasalariga ko‘rsatma berdi. 2021-yildan PISA va PIRLS nazorat dasturida ishtirok etish rejalashtirildi. Ta‘lim sifatini jahon standartlariga javob bera oladigan darajaga ko‘tarish o‘qitish shakllari, metodlari va usullarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Maktablarda hozirgi kunda PISA va PIRLS tadqiqotlariga qatnashish uchun turli testlardan foydalanmoqdalar. Bu tadqiqotning asosiy vazifalaridan o‘quvchilarda

fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, badiiy asarni sharxlashga o'rgatishda ahamiyati kattadir.

O'quvchilarning o'qish sifatlari asosida o'qishi o'quvchilarni badiiy asarni tushunishida yordam beradi. O'qishning sifatlari:

- ongli o'qish
- to'g'ri o'qish
- tez o'qish
- ifodali o'qish

Badiiy asarlarni sharxlarda bu sifatlarning o'rneki katta, shuning uchun ham har bir pedagog o'quvchilarga savod o'rgatish davridan bu sifatlarga e'tibor berib o'rgatishi lozim bo'ladi. Hamma fanlarni integratsiya asosida o'tish ham juda muhimdir. Badiiy asarni sharxlab o'qishda har bir qo'shimchani ahamiyatini o'rgatish kerak bo'ladi, o'quvchi bitta qo'shimchani o'qimay ketsa yoki bitta harfni boshqa harf bilan almashtirib o'qisa so'zdagi ma'noning o'zgarishini tushuntirib borish kerak bo'ladi. Bu usullar orqali bolani biz ziyraklikka o'rgatamiz va o'quvchilar har bir o'qiyotgan so'ziga e'tiborli bo'ladi. Bunda biz badiiy asarni sharxlashni o'rgatishga savod o'rgatish davridan bolani tayyorlab boramiz. Badiiy asarni o'quvchilar ifodali, to'g'ri, ongli o'qishni o'rganganlarida uni tushunishlari qiyin bo'lmaydi.

Badiiy asarni sharxlashda hozirgi rivojlangan kompyuter asrida yashar ekanmiz, o'quvchilarga ham yangi metodlar orqali tushuntirib berishimiz kerak. Hozir kitoblarimizning audiolaridan, multifilmardan foydalanishimiz o'quvchilarning tasavvur olamini kengaytiradi shu bilan birga badiiy asarni tushunishlarj osonlashadi. Badiiy asarni yaxshi idrok etish uchun uni tushunishning o'zigina yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo'lib unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o'z ichiga oladi. Psixologik tekshirishlar natijasida kichik yoshdagi o'quvchilarning adabiy qahramonlarni idrok etishi va baholashidagi psixologik xususiyatlari o'rganilgan va ular adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo'lishlari aniqlangan:

1. Adabiy qahramonga emotsional munosabat
2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o'quvchilar o'z shaxsiy va axloqiy tushunchalaridan foydalanadilar. Qahramonlarni tasvirlashda kichik yoshdagi o'quvchilarning so'z boyligi kam bo'ladi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar bilan badiiy asarni sharxlab, ular nutqiga personajlarning axloqiy, intellektual, emotsional sifatlarini tasvirlovchi so'zlarni kirita borishdan iborat.

Asardagi qahramonlarning xarakteri ularning axloqiy sifatlarini anglash asosida tushuniladi. Bunda qahramonlarning nima qilishi emas, nima uchun shunday qilishi kerakligini bilish muhimdir. Asarni sharxlashga o'rgatishda o'quvchilarga ularni turli xil o'ylaydigan savollar berish ham asarni tushunishlariga yordam beradi. Bunday savollar aniq javob talab qilmasligi kerak. Ya'ni "kim?", "nima?", "qayer?", kabi savollardan

uzoqlashib, “nima uchun?”, “nima sababdan?”, “nega bunday qildi?” kabi o‘quvchilarni o‘ylantiraydigan savollar berishimiz kerak.

Badiiy asarni sharxlashda hisobga olish zarur bo‘lgan muhim omillardan biri uning o‘quvchilarga hissiy ta‘siridir. O‘quvchilar muallifning asosiy fikrini tushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan ham hayajonlansinlar. Matnni tahlil qilish o‘quvchida fikr qo‘zg‘atishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan dalillarga to‘g‘ri kelish kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmatini, badiiy go‘zalligi ham alohida qayd qilib o‘tiladi.

Badiiy asarlarni sharxlashni to‘g‘ri shakllantirish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashga, dunyo qarashini kengayishiga, tassavvur olami shakllanishiga, estetik did, etikaning rivojlanishida asosiy sabablardandir. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy asarni sharxlashni o‘rgatish har bir pedagogning vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oli ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847 sonli farmoni. 2019-y.
2. S Matchonov, H. Bakiyeva, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, G.Xolboyeva “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi”. Ishonchli hamkor. Toshkent. 2020-y.
3. Ibragimova, D., & Mirzanazarova, G. (2023). TECHNOLOGIES FOR THE FORMATION OF INTELLIGENCE AND THE MANIFESTATION OF TALENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(5), 1073–1076. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/20520>.
4. Inomjonovna, I. D. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARI INTELLEKTINI SHAKLLANTIRISH VA IQTIDORINI NAMOYON QILISHGA DOIR TEXNOLOGIYALAR.
5. Akramjon O‘Ktamjonovich Mirzayev, and Odina Davronbek Qizi Pozilova. "BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PIRLS TADQIQOTINING AHAMIYATI" *Scientific progress*, vol. 3, no. 3, 2022, pp. 139-143.